VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

UDK: 912.43:796.5:912.644.4(575.1)

REKREATSION VA TURISTIK RESURSLAR

M.A.Xudoynazarova
“TIQXMMI” MTU ning
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar
instituti o‘qituvchisi

Hududlarning rekreatsion-turistik salohiyati ushbu hududning qanchalik rekreatsion va turistik resurslarga boyligi bilan o‘lchanadi. Hududlarning turistik-rekreatsion faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan turistik-rekreatsion resurslar va ularning hududiy uyg‘unligi tushuniladi. (V.I.Krujalin)

Turizm sohasining resurslari - turizm maqsadlarida va turizm jarayonida insonning ehtiyojini qondirishga qodir tabiiy-iqlim, ijtimoiy -madaniy, tarixiy, me’moriy, ilmiy va xizmat ko‘rsatishga doir, tomosha qilinuvchi obyektlar yoki hodisalar to‘plamidan iborat.

Turizm sohasining resurslari har bir mamlakatning milliy boyligi bo‘lib, ular davlat mulki hisoblanadi. Ammo ulardan bir qismi jahon ahamiyatiga molik obyektlar va yodgorliklar hisoblanib YUNESKO ning «Jahon merosi» ro‘yxatiga kiritilgan. Bunday ro‘yxat har yili YUNESKO tomonidan o‘rganiladi va yangilanadi, ro‘yxatdagi ushbu tabiiy, tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat tomonidan muhofaza qilinadi, umumjahon ahamiyatidagi obyektlar va yodgorliklarni ta’mirlashga, saqlab qolishga BMT tomonidan tegishli mablag‘ ajratiladi. Bugungi kunda O‘zbekiston katta turistik resurslar salohiyatiga ega bo‘lib, uning hududida 7400 dan ortiq tarixiy-arxitektura yodgorliklari va go‘zal tabiiy-iqlimiy resurslari mavjud. Turistik resurslaming 1/3 qismigina turizm uchun faoliyat ko‘rsatmoqda, qolganlari esa turistik infratizimning shakllanishini va yangi tur mahsulotlar tayyorlashni talab qilmoqda. Hozirgi vaqtda ko‘pgina tarmoqlar kabi turizm industriyasi ham tez rivojlanib bormoqda. Turistik biznesni mavjud investitsiya, texnologiya, hamda malakali ishchi - xodimlar orqaligina shakllantirib bo‘lmaydi. Buning uchun birinchi navbatda, turistik resurslardan samarali foydalanish zarur bo‘ladi. Mutaxassislar turistik resurslarga quyidagicha ta’rif berishgan: “Turistik resurslar deb, tabiiy, tarixiy, ijtimoiy - madaniy va boshqa obyektlar bo‘lib, turistlarni sayohatga qiziqtiradigan, insonning jismoniy, ruhiy va aqliy kuchini tiklashi va rivojlanish ehtiyojlarini qondirishga qodir obyektlarga aytiladi”. Turistik resurslaming mohiyati shundan iboratki, ular turistik

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

mahsulot shakllanishiga asos bo‘lib hisoblanadi. Turistik resurslardan sog‘lomlashtirish, turistik, sport va tanishuv maqsadida foydalaniladi.

Ko‘pchilik mualliflar tomonidan hududlarning turistik-rekreatsion resurslar salohiyati 3 guruhga ajratiladi. Bular:

Tabiiy turistik-rekreatsiya resurslari.

Madaniy-tarixiy turistik-rekreatsiya resurslari.

Ijtimoiy-iqtisodiy turistik-rekreatsiya resurslari.

V.I.Krujalin va boshqalar (2014) tomonidan to‘rtinchi, ya’ni, axborot turistik-rekreatsion resurslar guruxi ham ajratiladi.

Tabiiy turistik-rekreatsiya resurslari. Tabiiy turistik-rekreatsiya resurslarning asosiy ahamiyati shundan iboratki, insonlarning jismoniy va ruhiy qobiliyatlarini tiklashda foydalanish vositalari bo‘lib xizmat qiladi.

Turistlar va rekreantlar asosiy ehtiyojlarini tabiatdan qondiradilar. Turistik faoliyatni tashkillashtirishda landshaftlar, iqlim, suv obyektlari, dengizlar, mineral suv va davolovchi botqoqlar asosiy resurs vazifasini bajaradi. Bu resurslar o‘zi yoki inson tomonidan qayta tiklanishi mumkin. Bu resurslarni geografik, biologik, geologik va boshqa jihatlarga ko‘ra baholash mumkin. Dam olishni tashkil etish uchun tabiiy turistik-rekreatsiya resurslarni tahlil etish talab qilinadi. Tabiiy resurslar sifatida alohida tabiat komponentlari yoki bir butun tabiat majmualarini olish mumkin. Barcha tabiiy resurslarga rekreatsiya yoki turistik salohiyat nuqtai nazardan qarash lozim. Tabiiy turistik-rekreatsiya resurslarning tasnifi mavjud bo‘lib, u ikki yoqlama xususiyatga ega, birinchi xususiyatiga ko‘ra tabiiy kelib chiqishi bilan, ikkinchi xususiyati esa turizm uchun iqtisodiy ahamiyati bilan bog‘liq. Tabiiy resurslar quyidagicha guruhlanadi:

Kelib chiqishiga ko‘ra:

• tabiiy (geologik, iqlimiy, gidrologik, termal suvlar);

• biologik - tirik tabiat (tuproq resurslari, flora, fauna);

• energoinformatsiyali, tabiatdan o‘ziga xos maydon va landshaft sifatida foydalanish bo‘lib, bu resurslar madaniy, ziyorat kabi turizm turlarini rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Rekreatsiya sifatida foydalanish turiga ko‘ra:

• mineral suvlar;

• botqoqlar;

• tuzlar;

• o‘rmonlar;

• daryo sohillar;

• buloqlar;

• tabiatdagi so‘lim joylar.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

Resurslarning davomiylik darajasiga ko‘ra:
• tugaydigan tabiiy resurslar, ular o‘z navbatida yangilanib turadigan (chuchuk suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi) va yangilanmaydigan (minerallar) turlarga bo‘linadi.
• tugamaydigan tabiiy resurslar, ularga quyosh energiyasi, shamol, dengiz to‘lqinlari, suvlari kiradi.
O‘zi qayta tiklanishi va o‘sishi imkoniyatiga ko‘ra:
• qayta tiklanadigan resurslar, bunga o‘rmonlami misol keltirish mumkin, o‘rtacha 20-30 yilda qayta tiklanadi.

• qayta tiklanmaydigan resurslar.

Tabiiy turistik-rekreatsiya resurslar orasida asosiy o‘rinni rekreatsiya resurslari egallaydi, ular mamlakat aholisini hamda turistlarni dam olishi va davolanishi uchun xizmat qiladi. Tabiiy resurslardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish natijasida bir qancha muammolar ham kelib chiqmoqda. Bunda tabiatdan noto‘g‘ri foydalanish, ko‘plab rejasiz qurilishlarni amalga oshirish tufaylidir. Natijada tizim muvozanati buzilib, ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.
2. Madaniy - tarixiy resurslar. Ma’lum hududda turizmni rivojlantirishda u joyning tarixiy - madaniy resurslari salohiyati asosiy o‘rinni egallaydi. Turistik xizmatda madaniy - tarixiy resurslardan ko‘p maqsadlarda foydalanish mumkin. Madaniy majmualarning jozibadorligi, ularning tarixiy va tasviriy bahosidan foydalanish qulayliliga bog‘liq. Mavjud resurslardan turizm faoliyatida intensiv foydalanish, ya’ni antropogen yukning oshib borishi natijasida tabiiy turistik resurslarning ifloslanishiga, tarixiy obidalaming tez buzilishiga olib keladi.
Madaniy –tarixiy rekreatsiya resurslariing turlari:Tarixiy, arxeologik, shaharsozlik va arxitektura, san’at, xujjatli yodgorlik.

Arxeologik yodgorliklar (eski shaharlar qoldiqlari, qo‘rg‘onlar, qadimgi aholi punktlari qoldiqlari, istehkomlar, kanallar, yo‘llar, qadimgi qabristonlar, tosh haykallar, qoyaga tushirilgan rasmlar, qadimgi rasmlar);

Tarixiy yodgorliklar (binolar, inshootlar, muhim tarixiy voqealar bilan bog‘liq joylar va narsalar, fan-texnikaning rivojlanishi yoki xalqlarning madaniyati, turmushi, mashhur insonlarning hayoti bilan bog‘liq joylar va predmetlar);

Shaharsozlik va arxitektura (Arxitektura ansambllari va majmualari, shahar va boshqa aholi punktlarining tarixiy markazlari, maydonlari, ko‘chalari, qadimgi shaharlar rejalari va qurilishlarning qoldiqlari); San’at (monumental asarlar, tasviriy san’at, dekarativ va amaliy san’at hamda boshqalar);

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

Xujjatli yodgorliklar (davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining aktlari, boshqa yozma va grafik xujjatlar, kino-foto xujjatlar va ovoz yozishlar, shuningdek, qadimgi qo‘lyozmalar va arxivlar, folklor va musiqa yozuvlari, noyob bosma nashrlar va boshqalar);

Boshqa obyektlar muzeylar, ko‘rgazmalar, teatrlar sanoat, qishoq xo‘jaligi va transport korxonalari, ilmiy va oquv muassasalari, sport inshootlari, botanika bog‘lari va boshqalar).

Yuqorida ayrim mutaxassislar ta’kidlaganimiz to‘rtinchi tur axborot turistik-rekreatsion resurslari – bu tursitlar tomonidan sayohatga tayyorlanish jarayonida yoki bevosita sayohat jarayonida hududlarning tarixi, madaniyati, tabiati, xo‘jaligi va odamlari haqida olingan ma’lumotlardir.

Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritiladigan obyektlarning quyidagi xususiyatlari hisobga olinadi:
• inson ijodining noyob namunalari;
• ajoyib madaniy, arxitektura obyektlari hamda madaniy landshaftlarning alohida ahamiyatga ega hududlari;
• zamonaviy sivilizatsiyaning noyob namunalari, qurilishlari;
• inson tarixi bilan bog‘liq binolar yoki arxitektura ansambllari, landshaftlari.
Tabiatning noyob ko‘rinishlarini butunjahon ro‘yxatiga kiritiladigan xususiyatlari quyidagilardan iborat:
• yer qatlamining shakllanishida geologik-geomorfologik jarayonlar asosida shakllangan yodgorliklar;
• turli-tuman o ‘ziga xos ekosistemalar, landshaftlar;
• ma’lum mintaqaning o‘ziga xos o‘simlik va hayvonlari;
• kamyob biologik turlari.
3. Ijtimoiy - iqtisodiy turistik resurslar. Turizm –iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, qurilishdan boshlab transport xizmatigacha bo‘lgan faoliyatning ixtisoslashgan turi hisoblanadi.
Undan tashqari turizm iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi korxonalari, transport vositalari, ishlab chiqaruvchi zavodlar, mebel ishlab chiqaruvchi korxona va boshqalar bilan o‘zaro aloqada rivojlanadi. Mehnat resurslari.Turistik mahsulot ishlab chiqarish jarayonida insonlaming jismoniy va aqliy mehnati ishlatiladi. Bunda insonlarni sog‘lig‘i va jismoniy kuchi, ma’lumoti hamda malakasi asosiy o‘rinni egallaydi. Mehnat resurslarining miqdori, malakasi iqtisodiy omil sifatida katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda jahonda tashkil etilgan har 7 ishchi o‘rindan biri turistik biznesga to‘g‘ri keladi. Yaqin o‘n yil ichida Yevropa mamlakatlarida va

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

boshqa qator mamiakatlarda ham turizm sohasi yangi ishchi joylarni tashkil qilishning yirik manbai bo‘lib qolmoqda. Turizm jahon xo‘jaligi mehnat resurslarini ko‘p talab qiluvchi tarmoqlaridan hisoblanadi. Turizm sohasidagi band ishchi kuchining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki 70 foizi malakasiz hisoblanadi.

Rekreatsiya resurslari deganda, ma'lum xususiyatlarga (o‘ziga xosligi, estetik jozibasi, terapevtik va sog‘lik ahamiyatliligi) ko‘ra har xil turdagi va ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil qilish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan tabiiy muhit va ijtimoiy-madaniy tabiat hodisalari tushuniladi. Rekreatsiya resurslari odatdagi insoniy muhitdan, har xil tabiiy va madaniy muhitlarning kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi. Rekreatsiya resurslarini baholash har bir tarkibiy qismni omillarga qarab baholashga asoslanadi (topografiya, suv havzalari va er qoplami, bioiqlimi, gidromineral va noyob tabiiy shifobaxsh resurslar, tarixiy va madaniy salohiyat va hk); turizmning o‘ziga xos turidan foydalanish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Rekreatsiya va turizmni tashkil qilishda eng muhim tushuncha rekreatsion-turistik resurslar hisoblanadi. Chunki hudud qanchalik resursga boy bo‘lsa, hududning imkoniyatlari ortib boradi. Rekreatsion-turistik resurslarni mutaxassislar 3 guruhga bo‘lib o‘rgangan. Bular tabiiy rekreatsion-turistik resurslar, madaniy-tarixiy rekreatsion-turistik resurslar va iqtiqodiy-ijtimoiy rekreatsion resurslar, ayrimlar to‘rtinchi guruhni ham qo‘shishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кружалин В.И., Мироненко Н.С. и др. География туризма. Учебник. М.: Федеральное агенство по туризму,2014-й. 70-б.
2. Колотова Е.В. Рекреационное ресурсоведение.-М.:PMAT, 1999
3. **www.ziyonet.uz**

WORDLY KNOWLEDGE